

XALQNI SUYGAN - XALQ SUYGAN SHOIR

JDPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 206- guruh talabasi

Tilovova Hilola

Ilmiy rahbar: f.f.n.dots. J.Jorayev

-She'r shoir ko'nglining kechinmalari tafsilotimi yoki ijtimoiylikka dahldor bitiklarmi?

-She'r ko'ngilni ijtimoiylikka bog'laydigan rishta bo'lishi kerak.

Men she'rni ko'chadan izlab ko'chadan topaman. Kitob o'qib nasr topish mumkin, olim bo'lish mumkin. Ammo haqiqiy she'r - odamlar orasida.¹

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf shunday degan ekan shoir Orif To'xtash bilan suhbatlaridan birida.

Insonning hayotga qanday nigoh, qay niyat bilan qarashi uning yillar davomida oilada, ta'limda, jamiyatda, hayotiy faoliyatida ongida shakllangan ma'naviyatiga bog'liq ekani rost. Ma'naviyat adabiyot bilan hamnafas, hamohang. So'z va ohang ijodkorlari bu hamnafaslikni ro'yobga chiqaradi va uni tinglovchi, o'quvchi qalbiga joylaydi. Shoir -u yozuvchilarning vazifasi, burchim deb bilgani ham shu: eng toza, iliq tuyg'ularni, shavq - zavqni inson qalbida uyg'otish.

"Inson qalbini, uning dard - u tashvishlarini, xalqning orzu - intilishlarini, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohanglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no- mazmuni deb biladigan muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli ekanini yaxshi bilamiz".²

¹ O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf shunday degan ekan shoir Orif To'xtash bilan suhbatlaridan birida. Manba: www.ijodkor.com sayti

² Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvidagi nutqida.

Yosh avlodni mustaqil O'zbekistonning kelajagini ta'min etuvchi komil inson sifatida tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shoir va yozuvchilarimiz o'z iste'dodi bilan kishining ongi, dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirish, xalq qalbining kuychisi bo'lishdek og'ir va murakkab, ulug' bir vazifani zimmasiga olganlar.

Muhammad Yusuf deyilganda o'sha qadrdon Vatan tuyg'usi ulug'langan, mehr - muhabbat jo'shgan umuman zavqli tarannumlar yaratgan she'riyat egasi bo'lgan inson xayolda gavdalanadi.

"O'zing mening ulug'lardan ulug'imsan, Vatanim", "Men Bilol, men Habash, qulday sevaman, Vatan, kimligingni bilmay sevaman", "O'zingdan qo'ymasin, xalqim, o'zingdan -a", "Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor", "Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston" "O'zbekka o'xshatish topmoq muammo, O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek" - bu betakror parchalar Muhammad Yusuf yuragidan chiqib xalqning qalbida, xotirasida mahkamlanib qolgan misralardir.

"Nechun qulluq qilmay Andijonga men?" bu bir satrning o'zidan kishi o'zi tug'ilib ungan yurtidan qarzdorligi, uning oldidagi xizmatlar naqadar muhim va buyukligi aks etganini ko'rish mumkin.

"Yo'q vatanni vatan dedik yetmish yil biz,

Chin Vatanning poylariga cho'kaylik tiz".

Bunda istiqloлга ega erkin, hur hayotga shukronalik keltirishga da'vat etilgan mazmun ifodalanadi, Negaki, nimagadir erishib undan naf olayotgan odam o'sha narsani asrashni, qadrlashni biladi qachonki unga qanday yo'llarni kezib, kimlar - u nimalar yordamida yetishilganini his qilsa, mulohaza etsa. Istiqlol ne'matini idrok etish ham shunday: istiqloлга erishish qanday mushkulotli kechgan bo'lsa, uni asrash ham mas'uliyattalab, ham sharaflı, oliy burch ekanligini millatning har bir vakiliga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Elning farovonligi, osudaligi, umuman xalq uchun xizmat qilib, yelib - yugurib yashayotgan insonda bunday mas'uliyatning chuqur his etilayotganini ko'ramiz.

"Totuv yurtda yantoq o'zin tog' aylagay"

Yurtning taraqqiy etish omili, avvalo uning tinchligida. Iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, umuman har qaysi jabha ravnaqiga uning totuvligidan oldin erishib bo'lmaydi. Bu -hech qachon inkor qilib bo'lmaydigan va har doim o'z tasdig'ini topib kelgan haqiqat.

Shunday, ***"bu dunyoda eng yorug' baxt - el tinchidir!"***.

Insonni bu yorug' baxtni anglash, qadrlashga dav'at bo'lgan bu misralar takroriy tahsinga loyiq.

Muhammad Yusufni hamkasblari halol, rostgo'y, pokiza qalb egasi deya ta'riflashgan. Uning har qaysi yozgan she'rida haqiqatga yaqin, hamnafaslik sezilib turishi, ham xalqonaligi uning soddaligi, oddiyligida.(kim shunday yozgan qisqa yozda shunga sen munosabat bildir)

Muhammad Yusuf lirikasida beg'uborlik, xoh adabiyot kishisi bo'lsin, xoh oddiy xalq vakili -barcha uchun tushunarli bo'lgan bu soddalik kishini o'ziga ixtiyorsiz jalb etadi.

"Muhammad Yusuf ijodi haqida gap ketganda ko'pincha uning qo'shiqlarini tilga oladilar. U qo'shiq yozgan ham, o'zini qo'shiqchi shoir deb tan olgan ham emas. Uning yozganlari nihoyatda dolzarb mavzuda o'ta jiddiy, ammo xalq diliga shu qadar yaqin va ravon tilda yozilgan. Shuning uchun ham hofizlar ularni qo'shiqqa solib, elga tanildilar. Uning oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislarni yig'latdi, kuldirdi".

3.(O'zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov fikri)

4.Manba: M.Yusuf. "O'zingdan qo'ymasin, xalqim". G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 2000

Bizningcha, ijodkor uchun eng keraklisi ham shu- muxlis emotsiyasiga ta'sir ko'rsata olish.

Muhammad Yusuf ijodini o'rganish o'zbekning ko'nglini yorqinroq, yaqinroq bilishga imkon beradi. Shoirning eng oliy fazilati - uning samimiyatga boyligi. U mavzuni o'ylab topmaydi, nom o'z - o'zidan tug'iladi, hayotiy xulosa bo'lib hayotdan olinadi.

O'zini goh kapalakka, goh qizg'aldoq, goh jayron-u tulporlarga do'st, dilkash tutgan samimiy shoir ushbu she'rida "qadoqqo'l bobodehqon" suhbatiga o'tib she'rsifat so'z bitadi:

Oftob chiqar, oftob botar,
Cho'g'lar sochib tanangga.
Bir kungina bormay qo'ysang
Nima qilar dalangga.
Ish degani faqat senga
Chiqqanmi yo ey mo'min,
Onang seni paxtazorda
Tuqqanmi yo ey mo'min.
Qadoqqo'l tovonim mening,
Bobodehqonim mening.

She'rdagi ritorik so'roq gaplar orqali shoir butun o'zbek xalqiga ishora qilib, sen shunchalar mehnatkashmisan, deya faxrlanayotgandek. Chunki bu fidoyilik, mehnatni sevishlik faqat o'zbek xalqigagina, o'zbekning tanti dehqonigagina xos. (yana yoz fikr badiiy) Kunning yorug'ida ham, tunning xirasida ham dalasidagi yumushini ko'zi qiymaydigan dehqonlarimiz, "Bahor kelsa qiqirlashib", tizilishib dalalarni bezaydigan lolalar- u, tinglaganda "yurakni sel qiladigan" tanovorimiz bor. Yaxshi yomonni, katta- yu kichikni duo qilib, "tilagani omonlik bo'lgan momolarimiz" bor. Muhammad Yusuf tuygan faxr bilan aytganda, "bizda bori qayda bor?!"

O'zini o'ylamay - o'ylab
Farzandini yurgan sizlab.
O'nga kirgan farzandiga
Sarmo yiqqan qalliq izlab.
Bizda shunday - boringni qo'y,
O'nta o'zbek to'plansa - to'y.

Nomus uchun
Kerak bo'lsa
Joningni yoq,
Ko'zingni o'y.
Soch topganing,
Yoz dasturxon
O'zbekiston, O'zbekiston!
To'yda unut gina - araz,
To'yxonaga do'nar qishloq.
Shivirlab ham aytilsa bas,
Kelaverar odam tog' - tog'.
...Bu yoq vodiylar
Bu yoq Surxon
O'zbekiston, O'zbekiston!

Bu bandlarni o'qib bo'lib yuzingizda iliq bir tabassum joylashganini sezasiz. Xalqqa bu qadar yaqin, xalqni qalb qo'riga joylagan shoir ijodida xalqning urfona manzaralari she'rga aylanadi. O'zbeklarning qadrdon, odatda aylangan chiroyli an'analarini kuzatish orqali shoir ahli o'zbekning xalqligini, yorug' kunlarini tasvirlagan holda she'rga solgan. (Bolajon o'zbek, to'y, milliy qadriyatlar haqida she'rga tarifi yoz) Xalqimiz har doim ham dilbandining g'amini yeb yashagan. Farzand tug'ilganda niyat qilib ism qo'yishlari, Alpomish, Barchin- u To'marisdek bo'lsin, deb niyat qilishlari ("Beshiklarni bo'shatib bir- biriga, Tug'iladi To'maris- u Alpomishlar") elimizning sof qalbi samimiy niyatlarga to'laligini ko'rsatadi. M.Yusufning bir she'ri("O'zbekiston") tasvirida xalqning yallalari to'ylarga tutashadi, yana biri("Xalqona")da to'y bo'lgan hovli tandirlari nonga to'ladi. Bular o'zbek xalqining ajoyib, ko'p qadar zavqli an'analar tasviri hisoblanadi. Shoir ijodida o'zbekning mardligi, nomus- orni yuqori o'ringa qo'yishi, mehmonsevarligi va bu xalq odamlarining hammasi bir- biriga qadrdon, do'st- u yor ekanligi biror tashbehsiz, to'qimasiz haqqoniy, konkret ko'rinishda tavsif etilgan.

Shoir suhbatlardan birida deydi: **“Ha, she’rlarim sodda. Balandparvoz, bo’yoqdor so’zlardan uzoq bo’lishni yoqtiraman. Turli bo’yoqdor, jimjimador o’xshatma so’zlar she’rda bo’lgani bu - yaxshi, lekin uni ota - onang tushunmasa nima kerak”.**

“Haqiqiy shoir o’zini shoirman deb iddao qilmaydi.

Xalqning o’zi uni shoirim deb tan oladi”.

Aslida ham shoir ko’nglida mavjudlanganini yozadi, bayon qiladi.

Oллоh tuhfa etgani uchun u ilohiy. Bu iste’dod mahsulini xalq qalbiga bog’lay olgan shoir - suyuqli shoir. Xalq mehrini qozona olgan she’riyat -baxti boqiy she’riyat.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. M. Yusuf."O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim". "G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 2000